

**JAZONI O'TASHDAN MUDDATIDAN ILGARI SHARTLI OZOD QILINGAN
SHAXSLARNI XULQ-ATVORI USTIDAN NAZORAT QILISHDA PROBATSIIYA
XIZMATINING HUQUQLARI**

Umaralieva Dilshodaxon Nabijonovna

IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrası katta o'qituvchisi

Ashurov Behro'z Jumanazar o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.11.2025

Revised: 29.11.2025

Accepted: 30.11.2025

KALIT SO'ZLAR:

Ushbu maqola, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar ustidan probatsiya nazoratini amalga oshirish tartibi, uning huquqiy asoslari va O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni va 2025-yil Ichki ishlar vazirining 403-son buyrug'i asosida belgilangan qoidalar yoritilgan. Shuningdek, probatsiya xizmatining jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarni hisobga olish, ularning xulq-atvorni kuzatish, elektron nazorat vositalarini qo'llash, intizomiy va rag'batlantirish choralari belgilash hamda qo'shimcha taqiqlar (cheklovlar) va majburiyatlar belgilash to'g'risida sudga taqdimnoma kiritish kabi asosiy huquq va vakolatlari batafsil tahlil qilinadi.

Respublikamizda jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashni samarali olib borilishini tashkil etish maqsadida, so'nggi yillarda bir qator islohotlar olib borilib, shu bilan birga jinoyat-ijroiya tizimini tubdan isloh qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirishga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, jazoni ijro etish tizimini takomillashtirish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyasini ta'minlash, qayta jinoyat sodir etilishini oldini olish maqsadida,

ularni axloqan tuzatish bo'yicha tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli qonunchilik va me'ëriy-huquqiy baza shakllantirilib, doimiy ravishda takomillashtirilib kelinmoqda⁴¹.

Jumladan, 2024-yil 7-avgust kunidagi "Probatsiya to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, probatsiya xizmati faoliyatini mustaqil institut sifatida tartibga solib, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning jamiyatga moslashuvini ta'minlash va retsidiv jinoyatlarni oldini olishda muhim vosita bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shaxsni muddatidan ilgari shartli ozod qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-moddasiga muvofiq, sud tomonidan shaxsni tayinlangan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishi orqali amalga oshiriladi. Unga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan o'tganligi shaxsni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod etilishiga yetarli hisoblanadi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish faqat sud tomonidan tayinlangan jazoning qonunda nazarda tutilgan qismini o'tash paytida (hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar ushlab turilgan, qamoqda, uy qamog'ida saqlangan vaqtni hisobga olgan holda) o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish mahkum:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sud tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;

b) og'ir jinoyati uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini;

v) o'ta og'ir jinoyati uchun sud tayinlangan jazo muddatining kamida to'rttdan uch qismini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llanilishi mumkin⁴².

⁴¹Umaraliev D.N. Значение правового положения лиц, находящихся под пробационным контролем, и возложенных на них обязанностей при исполнении наказаний, не связанных с лишением свободы//https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=6iXDnw0AAAAJ&citation_for_view=6iXDnw0AAAAJ:qjMakFHDy7sC

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni ichki ishlar organlari, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan harbiy xizmatchilarning xulq-atvori ustidan nazoratni esa — harbiy qismlar yoki muassasalarning qo'mondonligi amalga oshiradi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organning taqdimnomasiga binoan sud ilgari ushbu shaxsning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni to'liq yoki qisman bekor qilishi yoxud uning zimmasiga qo'shimcha majburiyatlar yuklatishi mumkin⁴³.

“Probatsiya to'g'risida”gi Qonunning 3-moddalariga ko'ra, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar probatsiya hisobiga olinib, ularning xulq-atvori ustidan qat'iy nazorat o'rnatiladi.

Jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish sud tomonidan Jinoyat-protsessual kodeksining 536-moddasida belgilangan tartibda qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining jinoyat protsessual kodeksining 536-moddasi birinchi qismiga muvofiq, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilroq'i bilan almashtirishga oid masala, jinoyat ishi qaysi sudlovga tegishliligidan qat'iy nazar, mahkum jazoni o'tayotgan jazoni o'tash muassasasi yoki jazoni ijro etuvchi organ (bundan buyon matnda-jazoni ijro etuvchi organ) joylashgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi, harbiy sudi sudyasi tomonidan yakka tartibda hal etiladi⁴⁴.

Jinoyat kodeksining 73-moddasida nazarda tutilgan hollarda jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish jazoni ijro etish organning taqdimnomasiga yoki mahkumning, uning himoyachisining iltimosnomasiga binoan sudya tomonidan qo'llaniladi.

Mahkum jazo muddatining Jinoyat kodeksi 73, 74, 89 va 90-moddalarida belgilangan qismini o'tab bo'lganidan so'ng bir oylik muddat ichida jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati uni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishga taqdim etish masalasini agar mahkum yoki uning advokati tegishli iltimosnoma bilan sudga bevosita murojaat etmagan bo'lsa ko'rib chiqishi hamda taqdim qilish yoki rad etish haqida qaror chiqarishi shart.

⁴² O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // URL: <http://lex.uz/docs/111453>

⁴³ O'zbekiston Respublikasi. (2024). Probatsiya to'g'risidagi Qonun. O'RQ-938-son, 07.08.2024. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/-7050441>

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi// <https://lex.uz/acts/111460>

Ma'muriyat mahkumni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga taqdim etishni rad etgan taqdirda mahkum yoki uning advokati sudga tegishli iltimosnoma bilan murojaat etishga haqli⁴⁵.

O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi qonunning 5-bobida, shaxsni probatsiya hisobiga qo'yish va probatsiya nazoratini amalga oshirish tartibi ko'rsatilgna bo'lib, unga ko'ra shaxsni probatsiya hisobiga qo'yish uchun sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi yoki qarori, shuningdek amnistiya akti yoxud afv etish asos bo'lishi ko'rsatib o'tilgan.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarga jazoni ijro etish muassasalarida yuritilgan shaxsiy yig'ma jildi davom ettiriladi⁴⁶.

Probatsiya bo'linmalari tomonidan agar shaxs jazoni ijro etish muassasasidan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan bo'lsa, mazkur jazoni ijro etish muassasasiga uch kun muddatda hukmni ijro qilish uchun qabul qilinganligi va shaxs probatsiya hisobiga olinganligi haqida xabarnoma yuboriladi.

Probatsiya bo'linmasi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan probatsiya nazoratidagi shaxslarga sud tomonidan ularning zimmasiga yuklatilgan taqiq (cheklov)larga va majburiyatlar sud tomonidan belgilangan muddat mobaynida bajarilishini tekshirib boradi.

Shuningdek, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan sud hukmi bo'yicha yuklatilgan majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash choralari ko'riladi;

probatsiya nazoratidagi shaxs chaqiruvga binoan hozir bo'lmagan taqdirda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasiga majburiy tartibda keltirish to'g'risida so'rov yuboriladi;

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarga nisbatan sud tomonidan belgilangan majburiyatlarni to'liq yoki qisman bekor qilish haqida, shuningdek qo'shimcha majburiyatlar belgilash yoxud jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni bekor qilish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritiladi.

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi // URL: <http://lex.uz/docs/163629>

⁴⁶ Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг 19.07.2025 йилдаги "Пробация назоратидаги шахсларнинг хулқ-атвори устидан назоратни амалга ошириш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида"ги 403-сон буйруғи

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan probatsiya nazoratidagi shaxs agarda o'talmagan jazo muddati davomida uni bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, muddati tugashi bilan probatsiya hisobidan chiqariladi⁴⁷.

Probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan qo'shimcha taqiqlar (cheklovlar) va majburiyatlar belgilash to'g'risidagi hamda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni bekor qilish to'g'risidagi haqidagi taqdimnoma sudga tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmasi (bo'limi) boshlig'i tomonidan kiritiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, probatsiya xizmati shartli ozod qilingan shaxslar ustidan nazoratda nafaqat jazo, balki yordam vositasi sifatida ishlaydi. U shaxsga jamiyatga qaytish imkonini berib, shu bilan birga jamiyat xavfsizligini ta'minlaydi. 2024-yil 5-avgust kuni qabul qilingan "Probatsiya to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2025-yil qabul qilingan probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi buyrug'i bu jarayonni yanada aniq va samarali qildi – natijada retsdiv darajasi pasaymoqda, inson huquqlari himoya qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 30.04.2023 – Toshkent
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – 22.09.1994 – Toshkent
3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия кодекси // URL: <http://lex.uz/docs/163629>
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni – "Ichki ishlar organlari to'g'risida", O'RQ – 407, 16.09.2016-yil
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni – "Probatsiya to'g'risida", O'RQ – 938, 07.08.2024-yil
6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni – "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida", O'RQ – 681, 20.04.2021-yil

⁴⁷ Курбанов М. Н. Муқаддам судланган шахслар ўртасида амалга ошириладиган махсус профилактикасини такомиллаштириш масалаларига оид фикр мулоҳазалар //Central Asian Journal of Academic Research. – 2024. – Т. 2. – №. 12. – С. 68-72.

7. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug‘i –“Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” – IIV – 403, 19.07.2025

8. D.N.Umaraliyeva. Ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarga hukm qilingan shaxslarning xulq- atvori ustidan ta’sirchan nazorat olib borishda probatsiya xizmatining o‘rni. Siyosatshunoslik, huquq va halqaro munosabatlar jurnali. Toshkent 2023. Vol. 2 No. 2 (2023). ISSN -2181-2594 (http://t.me/ScienceBox_official)

9. Умаралиева Д.Н. Значение правового положения лиц, находящихся под пробационным контролем, и возложенных на них обязанностей при исполнении наказаний, не связанных с лишением

свободы//https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=6iXDnw0AAAAJ&citation_for_view=6iXDnw0AAAAJ:qjMakFHDy7sC

10. Kurbanov M. N. Muqaddam sudlangan shaxslar o‘rtasida amalga oshiriladigan maxsus profilaktikasini takomillashtirish masalalariga oid fikr mulohazalar //Central Asian Journal of Academic Research. – 2024. – T. 2. – №. 12. – С. 68-72.

